

BOLANI SHAXS BO'LIB RIVOJLANISHIDA OILANING RO'LI

*Ma'murjonova Sevinch Anvarjon qizi
Guliston Davlat universitetining 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Maqlada maktabgacha yoshdagi bo'lalarni tarbiyalashda oilani ro'li va ahamiyati, oila va bog'cha hamkorligi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim muassasasi, maktabgacha tarbiya yoshi, tarbiyachi, oila, ijtimoiy muhit.*

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va eht iyojlarini hisobga olish muhim ahmiyat kasb etadi. Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga assoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Bola shaxsning shakllanishida muhit, oila va harakat o'ziga xos omil sanalad i. Go'dak ham turli harakatlarni qiladi. Biroq, bu harakatlar keyinchalik shartli reflekslar bo'lib, ongli ravishda emas, balki shartsiz va shartli qo'zg'atuvchilarga javob tarzida yuz beradi. Bola shaxsning rivojlanishi avvalo unda shaxsiy xislatlarning shakllanishi bilan boshlanadi. Bola shaxsi rivojlanishida u yoki bu faoliyat turlari o'yin, o'qish, mehnat va boshqa faoliyatlarning turli yoshdagi faoliyatlar mazmuni shuningdek, aloqa, muomala hamda kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ijtimoiy-axloqiy me'yorlarga bo'ysunish, ijtimoiy burchni anglash, unga nisbatan mas'ullik kabi xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishi – bu muhim jarayon hisoblanadi. Ma'lumki, hayot davomida inson jismoniy va ruhiy jihatdan o'zgarib boradi. Lekin bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi. Oila va ijtimoiy muhit bolaning rivojlanishida asosiy o'rinn tutadi. Agar ana shu omillar bolaga ijobiy ta'sir qilsa, u kelajakda barkamol inson bo'lishi va salbiy tomondan ta'sir qilsa, badaxloq kimsaga aylanishi mumkin. Bola kamolotiga ta'sir etadigan omillardan muhit deganda kishiga tabiiy ta'sir etadigan tashqi voqealar majmui tushuniladi. Oilaviy tarbiyaning muhim roli nutq hisoblanadi, shuning uchun otaona o'z nutqida yoqimsiz ohang bilan, mantiqsiz va qaytariq so'zlarini ishlatalish va qo'llash bilan farzandlarni ranjitishlik, ularda ishonch hissini so'ndiradigan, hazilmutoyiba, samimiy bo'limgan fikr va mulohazalardan saqlanish kerak. Odatda, oilada ota-onan nazokatli bo'lgandagina haqiqiy obro'-e'tiborga erishadi. Bundan tashqari, oilada ota-onan o'rnatishda ijtimoiy muhitning o'sebi bo'lganligi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

bo‘lmog‘i uchun ishonch har tomonlama rivojlangan bo‘lishi, shuningdek, aqliy, axloqiy estetik jihatdan muayyan cho‘qqiga erishgan bo‘lishi darkor. Bularning barchasi ota onadan aql-zakovatli, milliy udum va urf-odatlarni mukammal egallagan shaxs bo‘lishni talab qiladi. Ota-onalar o‘z farzandlari o‘rtasida o‘rnak, ya’ni ko‘zgu bo‘lishlari uchun qator chora-tadbirlarni amalga oshirishlari zarur. Farzandlarni yoshiga mos holda qator tarbiyaviy ishlar olib borishlari darkor. Ota-onalar farzandlari oldida oilada ibrat, namuna ko‘rsatishlari uchun ularning ruhiy dunyosiga kirib borishlari ayni muddaodir. Komil insonni tarbiyalashda har bir ota-onan qimmat vaqtlarini o‘z norasidalaridan hech ayamasliklari kerak. Oila davrasida ota-onalarning kuzatuvchanligi, ziyrakligi, sezgirligi, fahmliligi, hozirjavobliligi, samimiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada ota-onalarning o‘z farzandlariga va oilaning boshqa a’zolariga (buva, buvi, kelin va boshqalar)ga mehribonligi ijobjiy muhitni yaratishdagi eng muhim vazifalardan biridir. Farzandlarining kuchiga, qobiliyatiga, aql-zakovatiga xotirasiga, diqqate’tiboriga, irodaviy xislatiga, qiziqishlariga, ko‘nikma va malakalariga qarab aqliy va jismoniy topshiriqlar berilishi hamda o‘z vaqtida, uzluksiz ravishda ularning natijasini tekshirish va oqilona baho berish, rag‘batlantirish bolalarda qat’iylik, dadillik fazilatini vujudga keltiradi, mustaqil ilmini, tashabbus ko‘rsatish sari chorlaydi, kattalarga nisbatan ixlosi ortadi. Otaonalarning ijtimoiy muhitda ibratli xislatlari, shaxsiy fazilatlari, irodaviy sifatlari, o‘z- o‘zini qo‘lga olish kabi jihatlari bolajonlar qalbida o‘chmas iz qoldiradi. Otaonaga nisbatan ishonch, intilishi, moyillik, hamdardlik kabi sifatlari shakllana boradi. Oilada ruhiy muhit, totuvlik mavjud bo‘lishi uchun ota-onalarda haqiqiy ma’nodagi nazokat hamda obro‘ mustahkam shakllangan bo‘lishi kerak. Bolaning ma’naviy tarbiyasida oilaning ahamiyati muhimligi ta’kidlanadi. Ota-onaning oiladagi moddiy, tashkiliy, tarbiyaviy va o‘zaro shaxsiy masalalar yuzasidan birbiri bilan bo‘ladigan munosabatlari sof, samimiyligi, erining xotiniga, xotinning eriga nisbatan o‘zaro hurmati, iffati asosida qurilsagina, bunda u oilada musaffo ma’naviy muhit va hamjihatlik vujudga keladi. Ota-onan munosabatidagi, ularning bir-biriga mehribonligi, farzandlariga bir xil muomalada bo‘lishi, har ikki tomonning qarindosh-urug‘lariga bir xilda mehr-oqibat, hurmat bilan qarashi, bir so‘zligi, haqiqatni gapirish kabi ijobjiy fazilatlarga ega bo‘lishi, shuningdek, sog‘lom hayot kechirishi, chekish, yolg‘onchilik, maishiy buzuqliq, dimog‘dorlik, manmanlik va boshqa shu kabi illatlar dan holi bo‘lishi oilaviy munosabatlar madaniyatining sofligini ta’minlovchi xususiyatlardir. Oila a’zolarining o‘zaro hurmati, do‘stona munosabatlarining shakllanishi uchun ular orasidagi muhabbat dastlabki manba bo‘lsa, axloqiy qadriyatlarning gultoji bo‘lgan ibo, hayo, xushmuomalalik, mehnatsevarlik, sarishtalik, ozodalik, pazandalik, g‘amxo‘rlik, mehr-shafqat kabi azaliy odatlarimiz oilada bola shaxsini to‘g‘ri shakllantirishda ikkinchi manba bo‘ladi. Xulosa o‘rnida e’tirof etish lozimki, har qanday jamiyatning taraqqiyoti va fuqarolik jamiyatini barpo qilishda ijtimoiy muhit muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy muhitning asosiy funktsiyalaridan biri –shaxsning hattiharakati, uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi tashqi ob'ektiv omillar majmuasi hamda muayyan tizim bo'lib, u o'zida shaxs imkoniyatlarini shakllantiradi, hayotga joriy etadi. Natijada har bir inson jamiyat hayoti bilan bevosita aloqadorligidagi aniq ijtimoiy faoliyat va muloqot maydonini namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. –T., 2018. 12 b.
2. O.Hasanboeva, D.Xoliqov. Oila pedagogikasi.–T.:Aloqachi, 2017. 32-35 b.
3. Sh.Sodiqova. Maktabgacha pedagogika. –T., 2012. 43-48 b.
4. G‘.B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog'inov. Oila psixologiyasi. – T.: Sharq, 2014. 52-53 b.